

**TISH NERVINING OLIB TASHLANISHIDA ISHLATILADIGAN
ANESTETIK VOSITALARNING SAMARADORLIGI**

Uktamova Shaxnozabonu

*Alfraganus universiteti Tibbiyot fakulteti
stomatologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya; Mazkur maqolada endodontik muolajalar, xususan, tish nervining olib tashlanishi jarayonida qo‘llaniladigan anestetik vositalarning turlari, ularning ta’sir mexanizmi, klinik samaradorligi va qo‘llashda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Tibbiyotda keng tarqalgan anestetiklar – artikain, lidokain, mepivakain va boshqa vositalarning o‘zaro farqlari, farmakodinamik xususiyatlari va bemor yoshi, sog‘lig‘i hamda individual sezuvchanligiga bog‘liq ta’siri ilmiy manbalar asosida o‘rganiladi. Maqola bakalavr hamda doktorantlar uchun dolzarb bo‘lib, stomatologik amaliyotda xavfsiz va samarali og‘riqsizlantirishni ta’minalashga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar; tish nervi, og‘riqsizlantirish, anestetik vositalar, artikain, endodontiya

Endodontik davolash tish pulpasining yallig‘lanishi yoki infeksiyalanishi natijasida zararlangan nervni olib tashlashni talab qiladi. Bu jarayon og‘riqli bo‘lishi mumkinligi sababli, samarali og‘riqsizlantirish muhim o‘rin tutadi. Anestetik vositalarning to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishi muolajaning muvaffaqiyatli va bemor uchun qulay o‘tishini ta’minalaydi.

Anesteziya turlari va stomatologik qo‘llanilishi Stomatologiyada quyidagi mahalliy anestetik vositalar keng qo‘llaniladi: Lidokain – klassik vosita, tez ta’sir qiladi, lekin qisqa muddatli Artikain – yuqori diffuziya qobiliyatiga ega, suyak to‘qimalaridan o‘tish xususiyati bor Mepivakain – vazokonstriktor qo‘silmagan holatda ham samarali Bupivakain – uzoq ta’sirli, lekin yurakka nisbatan toksikroq . Tish nervining olib tashlanishida anestetik vositalarning talablari Anestetik vosita quyidagi talablarga javob berishi lozim: Tez va kuchli og‘riqsizlantirish ta’siri Pulpa to‘qimasiga chuqur kirish xususiyati Asoratlar xavfini kamaytirish Toksik ta’sirning minimal darajasi Artikain – hozirgi davrda eng ko‘p ishlatilayotgan vosita bo‘lib, uning strukturasi metil guruhi o‘rniga tiofen halqasi bilan ajralib turadi. Bu esa uning nerv to‘qimasiga kirib borishini osonlashtiradi.

Anestetiklar samaradorligini aniqlovchi omillar To‘qima pH darajasi – yallig‘langan to‘qimada kislotali muhit anestetikning ionlashishiga olib keladi, bu esa ta’sirini susaytiradi. Bemorning yoshi – bolalar va qariyalarda organizm sezuvchanligi yuqori bo‘ladi. Immun javob – allergik reaksiya ehtimoli. Qo‘llanish usuli – infiltratsion yoki nerv blokadasi orqali yuborilishi.

Klinik tadqiqotlar va statistik natijalar. Toshkent davlat stomatologiya instituti tomonidan 2023 yilda olib borilgan tadqiqotda artikain 90% hollarda 5 daqiqa ichida to‘liq anesteziya bergen. Lidokain esa 82% hollarda 8 daqiqa ichida ta’sir qilgan. Mepivakain esa yurak-qon tomir kasalligi bo‘lgan bemorlarda afzal vosita sifatida tavsiya etilgan.

Asoratlar va ehtiyyot choralar; ba’zida quyidagi holatlar kuzatiladi: Og‘iz atrofida uyushish Tana haroratining pasayishi yoki allergik toshmalar Vena ichiga yuborilishda kutilmagan reaksiya Ehtiyyot choralari: Dozalashni to‘g‘ri hisoblash Bemor anamnezini chuqur o‘rganish Sinama in’ektsiya qilish .

Xulosa

Tish nervining olib tashlanishida qo‘llaniladigan anestetik vositalar muolajaning eng muhim qismidir. Artikainning yuqori samaradorligi uni zamonaviy stomatologiyada yetakchi vosita sifatida ajratib turadi.

Har bir bemor uchun individual yondashuv, vositaning farmakologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

1. Kurbanov I.A. “Stomatologik anesteziyada qo‘llaniladigan vositalar” – Toshkent, 2022
2. Abdullayeva N.M. “Mahalliy anesteziya va stomatologik amaliyot” – TDSI, 2023
3. Malamed S.F. “Handbook of Local Anesthesia” – 7th Edition, Elsevier, 2020
4. Jamilova D.S. “Pulpaning olib tashlanishida artikain va lidokain samaradorligi” – “Tibbiyot olami” jurnali, 2023